


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60110900 – Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili)
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60110900 – Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MUSTAFAYEVA SAMIDA TOSHMUXAMMEDOVNA

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: LI LIFANG

Lanzhou University

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260063
Xulosa raqami	827
Xulosa sanasi	30.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy. Litsenziya: № 1965967, 22.04.2008.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60110900
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 1965967, 22.04.2008
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60110900 – Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60110900 – Foreign Language and Literature (Chinese)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60110900 – Иностранный язык и литература (китайский язык)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Xitoy tili va adabiyoti o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	25 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha "Xitoy tili va adabiyoti" yo'nalishini ochish uchun zarur tashkiliy-huquqiy, metodik va institutsional asoslar shakllantirilgan bo'lib, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb topilgan. Yo'nalishni joriy etish hududiy mehnat bozori ehtiyojlari, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab dinamikasi hamda ish beruvchilar fikri asosida asoslangan, kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuzasidan tahlillar o'tkazilgan. Kafedra, fakultet va universitet miqyosida muhokamalar tashkil etilgan hamda tegishli qarorlar qabul qilingan. Istiqbolli rivojlanish rejasi ustuvor yo'nalishlar, mas'ul ijrochilar, amalga oshirish muddatlari, xavf-xatarlar tahlili va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni qamrab olgan holda ishlab chiqilgan. Mazkur reja universitetning umumiy strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, yangi yo'nalish muassasaning rivojlanish strategiyasi doirasida rejalashtirilgan. Shu bilan birga, ayrim indikatorlar bo'yicha hujjatlar mazmunini boyitish hamda dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish tavsiya etilgan. Aniqlangan tavsiyalar tashkiliy-boshqaruv va sifat tizimining mazmuniga emas, balki uning dalillanish darajasini yanada kuchaytirishga taalluqli hisoblanadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ta'lim dasturi mazmunining asosiligi va uning standartlarga muvofiqligi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturi mazmunini shakllantirishda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, mehnat bozori talablari hamda sohaga oid tashkilotlarning bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji atroflicha o'rganilgan va olingan natijalar dastur tarkibini shakllantirishga asos qilib olingan. Fanlar katalogi va o'quv dasturlari Davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablari asosida, kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bitiruvchilarda zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. O'quv

dasturlarini ishlab chiqishda dunyo universitetlari reytingining TOP-300 taligiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarining sillabus va o'quv dasturlaridan foydalanilgan bo'lib, bu ta'lim dasturi mazmunining xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlaydi. Fundamental, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'rtasidagi mutanosiblik hamda fanlarning uzviyligi talabalarining bilim va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini yaratadi. Nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikning uyg'unligi til yo'nalishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kommunikativ kompetensiyalar amaliy faoliyat jarayonida shakllantiriladi va mustahkamlanadi. Ta'lim dasturi mazmuni milliy va xalqaro talablarni inobatga olgan holda mehnat bozori ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimining yaxlitligi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturi xalqaro ilg'or tajriba va zamonaviy tendensiyalarni inobatga olgan holda, O'zbekistonning modernizatsiya maqsadlariga yo'naltirilgan hamda amaldagi milliy qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Dastur talabalarining kasbiy, amaliy, kommunikativ, tahliliy va innovatsion kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'limning natijaga yo'naltirilganligi ta'minlangan. O'quv jarayonining tarkibiy qismlari shaklan xilma-xil va mazmunan boy tarzda tashkil etilgan hamda o'quv natijalariga erishishni maksimal darajada ta'minlash tamoyili asosida shakllantirilgan. Universitetda joriy etilgan monitoring, nazorat va baholash tizimi ta'lim sifatini, kutilayotgan o'quv natijalariga erishilishini hamda talabalar huquqlarining himoya qilinishini ta'minlaydi. Mazkur tizim baholashning obyektivligi va ta'lim jarayonining shaffofligini kafolatlaydi. O'quv jarayoni va baholash tizimi xalqaro tajriba hamda milliy talablar uyg'unligida, natijaga yo'naltirilgan va sifat nazorati bilan qo'llab-quvvatlangan holda tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Talabalarining kreditlarni o'zlashtirish tartibi, qabul jarayonlari, o'quv natijalarini e'lon qilish hamda o'qishni ko'chirish va qayta tiklash bilan bog'liq jarayonlar amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan. Talabalar faoliyatiga oid ma'lumotlarning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash uchun zarur tashkiliy hamda axborot

mexanizmlari joriy etilgan bo'lib, talabalar o'z huquq va majburiyatlari, shuningdek baholash mezonlari yuzasidan o'z vaqtida erkin ma'lumot olish imkoniyatiga ega. Mavjud auditoriya fondining sig'imi belgilangan qabul kvotalariga moslashtirilgan bo'lib, bu resurslar va talabalar soni o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi hamda o'quv mashg'ulotlarini sifatli tashkil etish uchun zarur sharoit yaratadi. Talabalarni rag'batlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularning yutuqlarini e'tirof etish mexanizmlari rektor buyruqlari hamda ichki me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan bo'lib, talabalarni yuqori natijalarga erishishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Talabalar faoliyati yo'nalishi shaffof, adolatli va resurslar bilan muvozanatlashtirilgan ta'lim muhitini ta'minlovchi tizim asosida tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha ta'lim dasturini amalga oshiruvchi kadrlar salohiyati barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturini malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, mahalliy mutaxassislar bilan bir qatorda xorijiy professor va ekspertlarni jalb etish ham rejalashtirilgan. Xitoy tili yo'nalishi uchun ona tilida so'zlashuvchi va xalqaro tajribaga ega mutaxassislarning jalb etilishi til ta'limi sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ilmiy darajali kadrlar ulushini ko'paytirishga qaratilgan istiqbolli rejalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular kadrlar salohiyatining kelgusidagi ehtiyojlarga ham javob berishini ta'minlaydi. Yosh ilmiy-pedagog kadrlarni doktorantura va mustaqil izlanuvchilik orqali tayyorlash mexanizmi kadrlar zaxirasining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Xodimlarni moddiy rag'batlantirish tizimi kasbiy faollikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Universitetning kadrlar siyosati va salohiyatni rivojlantirish mexanizmlari ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli asos yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha moddiy-texnik ta'minotning yetarlilik darajasi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ochilishi rejalashtirilayotgan ta'lim dasturi bo'yicha 25 nafar talaba qabul qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, o'quv binosi zamon talablariga mos ravishda yangi ta'mirdan chiqarilgan va foydalanishga topshirilgan. Bino zamonaviy qurilish talablari asosida inklyuziv ta'lim uchun zarur sharoitlar bilan ta'minlangan bo'lib, infratuzilma umumiy foydalanish bilan bir qatorda maxsus

ehtiyojli talabalar uchun ham moslashtirilgan. Kutubxona va axborot-resurs markazi fondi zarur adabiyotlar bilan ta'minlangan, til o'rganish uchun lingafon xonalari hamda sport maydonchalari tashkil etilgan bo'lib, yo'nalish ehtiyojlariga mos infratuzilma yaratilgan. Xitoy tili yo'nalishi uchun lingafon xonalari va til-amaliyot muhitining mavjudligi kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning muhim texnik asosi hisoblanadi. Qabul rejasining 25 nafar talaba etib belgilanishi mavjud moddiy-texnik resurslar bilan muvozanatni ta'minlaydi. O'quv binosi va moddiy-texnik ta'minot mazkur yo'nalish bo'yicha sifatli ta'lim jarayonini tashkil etish uchun talablarga mos va yetarli asos yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarning mazmunini boyitish hamda dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish zarur.
- ✓ Ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va sifat jarayonlarini to'liq hujjatlashtirish talab etiladi.
- ✓ Xitoy tili yo'nalishi uchun o'quv-uslubiy va elektron resurslar bazasini muntazam yangilab, kengaytirib borish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Indikatorlar bo'yicha hujjatlar mazmunini boyitish va dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish.
- ✓ Ichki sifatni ta'minlashning uzluksiz mexanizmlarini takomillashtirish va to'liq hujjatlashtirish.
- ✓ Ona tilida so'zlashuvchi va xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni jalb etish hamda professor-o'qituvchilar salohiyatini muntazam oshirib borish.
- ✓ Lingafon va til-amaliyot muhitini hamda elektron o'quv resurslari bazasini bosqichma-bosqich kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetida 60110900 – "Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili)" bakalavriat ta'lim yo'nalishini tashkil etish imkoniyati bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yo'nalishni ochish uchun zarur tashkiliy-huquqiy, metodik va institutsional asoslar shakllantirilgan; dastur mazmuni Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida, xalqaro ilg'or tajriba (TOP-300 universitetlar sillabuslari) hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. O'quv jarayoni natijaga yo'naltirilgan va samarali monitoring-baholash tizimi bilan ta'minlangan, talabalar faoliyati amaldagi qonunchilikka muvofiq tartibga solingan, kadrlar salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari va zamonaviy o'quv binosi (inklyuziv sharoitlar, lingafon xonalari, ARM fondi bilan) yaratilgan. Aniqlangan kamchiliklar asosan ayrim indikatorlar bo'yicha hujjatlar mazmunini boyitish, dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, yo'nalishni ochishga to'sqinlik qiluvchi omil hisoblanmaydi. Umuman olganda, universitetning mavjud salohiyati, kadrlar tarkibi, ta'lim dasturi va infratuzilmasi mazkur yo'nalishni tashkil etish va samarali amalga oshirish uchun yetarli hisoblanadi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

